
TUMANDA OBODONLASHTIRISH ISHLARI DAVOM ETMOQDA

Ayni paytda Toshloq tumanidagi barcha qishloq, mahalla va mehnat jamoalarida tevarak-atrofni tartibga keltirish, saranjom-sarishta qilish, tozalash ko'lami yanada kengaygan.

Obodonlashtirish jarayonida mahallalar, korxonalar va tashkilotlar hududlarini tartibga keltirish, chiqindilarni belgilangan joyga chiqarib tashlash va ko'chalarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Navro'z" umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida mahalla fuqarolar yig'ini, aholi turar joylari, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, bolalar maydonchalari tartibga keltirilmoqda.

2023-03-14 16:09:37